



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE’MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASI

HAY’ATINING QARORI

2025-yil 6-oktabr

54-23-QR- son

Toshkent shahri

Qo‘mitada 2025-yil III choragi davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yakunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan joriy yilga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar to‘g‘risida.

Qo‘mita hay‘ati ta‘kidlaydiki, 2025-yil III choragi davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan Qo‘mitaga yuklatilgan vazifalar hamda joriy yilga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini tashkil etish yuzasidan qat‘iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib muayyan natijadorlikka erishilgan. Hisobot davrida:

Qo‘mita tomonidan jami **1 291 ta** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari (Ex-ante uslubida) raqobat muhitiga ta‘siri yuzasidan o‘rganildi, shundan **250 tasida (19%)** raqobatga zid normalar aniqlandi;

Qo‘mita va hududiy boshqarmalar tomonidan **71 ta** holatda birja savdolariga oid qonunchilik talablari buzilganligi bo‘yicha **69 ta** xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan ish qo‘zg‘atildi;

Raqobat qonunchiligi talablari yuzasidan **36 mlrd so‘mdan** ortiq ortiqcha mablag‘lar olinganligi aniqlanib, avvalgi yildagi bilan birgalikda jami **52 mlrd so‘mdan** ortiq mablag‘lar **764 mingdan** ortiq iste‘molchilarga qayta hisob-kitob qilindi.

Iste‘molchilardan jami **30 366 ta** murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasida iste‘molchilarga **16 mlrd so‘m** miqdorda yetkazilgan zararlar qayta hisob-kitob qilindi;

Bundan tashqari, o‘rganish va tahlillar ko‘rib chiqilishi natijasida iste‘molchilardan jami **75 mlrd so‘m** miqdorda ortiqcha mablag‘ olingani aniqlanib, tegishli choralar ko‘rilganligi oqibatida **44 mlrd so‘m** qayta hisob-kitob qilinib, **16 mln nafar** iste‘molchilarning buzilgan huquqlari tiklandi;

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsizligi va ularning sifatini nazorat qilish maqsadida jami **452 nomdagi** mahsulotlarning nazorat xaridi amalga oshirilib, ularning ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra, **77 nomdagi** mahsulotlar normativ-texnik hujjatlar talablariga javob bermasligi aniqlanib, tegishli choralar ko'rildi;

Reklamaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan **344 ta** subyektlarga nisbatan **2,4 mlrd so'm** miqdorda moliyaviy jarimalar qo'llanildi;

Qo'mita va uning hududiy boshqarmalari ishtirokida qonunbuzilish holatlari bo'yicha qo'zg'atilgan jami **1 297 ta** ishlar ko'rib chiqildi.

Lekin, hisobot davrida bir qator xato va kamchiliklarga, qoloqliklarga ham yo'l qo'yilgan bo'lib, erishilmagan natijalar bilan birgalikda o'z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Jumladan:

Qonun hujjatlari va davlat organlari qarorlarining raqobat muhitiga ta'sirini hamda davlat ko'magini samaradorligini baholashda hududiy boshqarmalar tomonidan 2025-yil III choragi davomida "Ex-ante" usulida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining raqobat muhitiga ta'sirini baholash bo'yicha amalga oshirgan ishlari **yetarli darajada emas**.

Hududiy boshqarmalar tomonidan jami **852 ta** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari raqobat muhitiga ta'siri yuzasidan ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning atigi **31 tasi (4 %)** raqobat qonunchiligiga zidligi aniqlangan.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida raqobat qonunchiligiga zid holatlar **umuman aniqlanmagan**.

Normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni "ex-post" usulida raqobatga ta'sirini baholash bo'yicha hududiy boshqarmalar tomonidan 2025-yil III choragi davomida "ex-post" usulida mahalliy davlat hokimiyati boshqarmalari va respublika ijro etuvchi boshqarmalarning hududiy bo'linmalari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va harakatlarining raqobat qonunchiligiga muvofiqligi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar **natijalari ham qoniqarli emas**.

Hududiy boshqarmalar tomonidan o'rganilgan mahalliy davlat hokimiyati boshqarmalarining va respublika ijro etuvchi boshqarmalarni hududiy bo'linmalarining 206 188 ta hujjatlarini atigi **720 tasida (0,3 %)** raqobat to'g'risidagi qonunchilikka zid holatlar **sodir etilganligi aniqlangan**.

Xususan, **eng past ko'rsatgichlar Farg'onada 7 ta**, shu o'rinda ta'kidlash lozimki bu ko'rsatkich **bir yildan buyon o'zgarmagan** (mahalliy davlat hokimiyati boshqarmalari hujjatlari), **Toshkent shahri 10 ta, Toshkent viloyatida 12 ta, Buxoro viloyatida 19 ta, Navoiy viloyatida 22 ta, Sirdaryo viloyatida 27 ta** qonunbuzilish holati aniqlangan.

Qo'mitaning hududiy boshqarmalariga belgilangan tartibda vazirlik va idoralarning hududiy bo'linmalarida hamda mahalliy hokimliklarida kompleks o'rganish (*tegishli hujjatlarni o'rganishdan tashqari tender, tanlov savdolari, davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil qilish va boshqalar bo'yicha raqobat qonunchiligiga rioya etilganligini o'rganish*) o'tkazish bo'yicha tegishli tushuntirish va ko'rsatmalar berilgan bo'lsa-da, **Namangan, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari** hududiy boshqarmalarida ushbu **tizim yo'lga qo'yilmagan**.

Qo'mitaning **Jizzax (1 272 ta)** va **Surxondaryo (1 038 ta)** viloyati hududiy boshqarmalari tomonidan o'rganilgan savdolar asoslantiruvchi (lotlar kesimida) hujjatlari bilan taqdim etilmagan. Faqat umumlashtirilgan shakldagi hisobotlar taqdim etilgan xolos.

Qo‘mitaning hududiy boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan o‘tkazilgan o‘rganishlarda ayrim hududiy boshqarmalar **“qonunbuzilishi aniqlanmadi”** deb ko‘rsatgan tanlovlarda ham raqobat qonunchiligi talablariga **zid holatlar aniqlandi**. Misol uchun:

Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi taqdim etgan o‘rganilgan savdolar to‘g‘risidagi ro‘yxat shaklidagi ma’lumot bo‘yicha Qarshi shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tomonidan 403735-sonli hamda Chiroqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 407225-sonli lot raqami bilan o‘tkazilgan tanlovda raqobat qonunchiligi **talablariga zid holatlar aniqlanmagan**.

Biroq, qayta o‘tkazilgan o‘rganish davomida 403735-sonli lot raqami bilan o‘tkazilgan tanlovda xarid hujjatlariga muvofiq barcha ma’lumot va hujjatlarni taqdim etgan hamda narx qismi bo‘yicha g‘olib deb topilgan korxonaga nisbatan past narx taklifini bildirgan “Optimal Trade Limited” MChJ va “Dream-Mebel-Of” MChJlar texnik qism bo‘yicha asossiz ravishda past ballar bilan baholanganligi natijasida “Shodlik Comfort” MChJ **g‘olib deb topilganligi aniqlandi**.

Shuningdek, 407225-sonli lot raqami bilan o‘tkazilgan tanlovda ishtirok etgan ikkita korxonadan bittasi ya’ni, “Dubai Logistic” MChJ xarid hujjatlari talablariga muvofiq ma’lumot va hujjatlarni to‘liq taqdim etmaganligi uchun tanlovdan chetlashtirilishi va savdo o‘tkazilmagan deb topilishi kerak bo‘lgan bo‘lsa-da, **asossiz ravishda** yuqori ballar bilan baholangan **holda savdo o‘tkazilganligi** aniqlandi.

Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan “Samarqand Avtomobil Zavodi” MChJning 4272993-sonli lot raqami bilan “Kuzov yetkazib berish va o‘rnatish” bo‘yicha boshlang‘ich narxi **8 040,9 mln. so‘m**lik tanlovda kamchiliklar aniqlanmaganligi bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etilgan.

Biroq, qo‘mita tomonidan qayta o‘tkazilgan o‘rganish davomida ushbu tanlovda ishtirok etgan ikkita korxonadan bittasi, ya’ni “Global Industrial Solutions” MChJ xarid hujjatlari talablariga muvofiq ma’lumot va hujjatlarni to‘liq taqdim etmaganligi uchun tanlovdan chetlashtirilishi va savdo o‘tkazilmagan deb topilishi kerak bo‘lgan bo‘lsa-da, **asossiz ravishda** yuqori ballar bilan baholangan **holda savdo o‘tkazilganligi** aniqlandi.

Ushbu holatlarda hududiy boshqarmalar tomonidan o‘rganish ishlari to‘liq amalga oshirilmasdan, yuzaki yondashilgan.

Insofsiz raqobat bo‘yicha qo‘mitaning hududiy boshqarmalari tomonidan **79 ta** murojaat ko‘rilgan bo‘lib, **29 ta** holatda ish qo‘zg‘atilgan.

Shundan, **Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1 ta, Andijonda 1 ta, Buxoroda 1 ta, Jizzaxda 5 ta, Qashqadaryoda 2 ta, Navoiyda 1 ta, Namanganda 3 ta, Samarqandda 3 ta, Surxondaryoda 1 ta, Toshkentda 3 ta, Farg‘onada 1 ta, Xorazmda 5 ta va Toshkent shahrida 3 ta** ish ko‘rib chiqilgan.

Sirdaryo viloyatida ish qo‘zg‘atilmagan, murojaatdagi holatga qarab raqobat **qonunchiligi doirasida tushuntirish berilgan**.

Ba’zi hududiy boshqarmalarning murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha bergan javob xatlari, maxsus komissiyalarining ajrim va qarorlari ustidan qo‘mitaga kelib tushgan apellyatsiya shikoyatlari ko‘rib chiqildi. **Namangan, Samarqand** viloyatlari va **Toshkent** shahar hududiy boshqarmalarida arizachi so‘ragan holat bo‘yicha raqobat qonunchiligi talablariga muvofiq **to‘g‘ri javoblar berilmagan**.

Jumladan, qo'mita Apellyatsiya kengashining 2024-yil 26-dekabrda 85-12-AKQ-son qarori bilan **Namangan viloyati** hududiy boshqarmasiga "OPELLA HEALTHCARE ITALY S.R.L." kompaniyasining 2024-yil 24-aprelda arizasida ko'rsatilgan holatlarni e'tiborga olib, "MERRYMED FARM" MChJga nisbatan qo'zg'atilgan 1-16-2024/43-sonli ishni qayta ko'rib chiqish yuklatilganligiga qaramasdan, hududiy boshqarma maxsus komissiyasi raisi qonunchilik buzilganligi belgilari yo'qligi sababli 2025-yil 14-aprelda ajrim bilan "MERRYMED FARM" MChJga nisbatan yangi 01/1-sonli ishni **qo'zg'atishni rad etgan**.

Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan "MARS, Incorporated" kompaniyasining 2025-yil 12-mayda 0790-sonli "AGRO BRAVO" MChJ tomonidan 1-14-2024/123-sonli ish bo'yicha berilgan ko'rsatma ijro qilinmayotganligi to'g'risidagi murojaatga tushuntirish xati bilan javob berilgan, aniqlangan holat yuzasidan "AGRO BRAVO" MChJga nisbatan **hech qanday chora ko'rilmagan**.

Toshkent shahar hududiy boshqarmasi maxsus komissiya raisi tomonidan "MARS, Incorporated" kompaniyasining 2025-yil 5-mayda 0786-son "ISE&GOLD" MChJ tomonidan 04/47-sonli ish bo'yicha berilgan ko'rsatma ijro qilinmayotganligi to'g'risidagi murojaatga tovar belgisini muhofaza qilish masalasi Adliya vazirligi vakolatiga kirishi asosi bilan 1-10-2025/152-sonli ishni **qo'zg'atishni rad etish** to'g'risidagi 2025-yil 12-mayda ajrim chiqarilgan.

Kartel kelishuvlari bo'yicha hududiy boshqarmalari tomonidan **34 ta** murojaat ko'rilgan bo'lib, **34 ta** ish qo'zg'atilgan.

Shundan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **2 ta**, Buxoro viloyatida **2 ta**, Jizzax viloyatida **6 ta**, Qashqadaryo viloyatida **2 ta**, Navoiy viloyatida **2 ta**, Samarqand viloyatida **3 ta**, Sirdaryo viloyatida **2 ta**, Surxondaryo viloyatida **1 ta**, Toshkent viloyatida **11 ta**, Farg'ona viloyatida **3 ta** ish ko'rib chiqilgan.

Namangan va **Xorazm** viloyatlarida ish qo'zg'atilmagan, murojaatdagi holatga qarab raqobat qonunchiligi doirasida tushuntirishlar berilgan.

Andijon viloyati va **Toshkent** shahri hududiy boshqarmalariga til biriktirish va kartel kelishuvlar bo'yicha murojaatlar kelib tushmagan.

Respublikada faoliyat yuritayotgan monopolist korxonalar va davlat ulushi mavjud tashkilotlar tomonidan **yuqori likvidli va monopol mahsulotlarni** birja savdolariga qo'yish bo'yicha **tasdiqlangan reja-jadvallar o'z vaqtida birjaning rasmiy veb saytiga** joylashtirish holatlari shuningdek, mahsulotlarni jadvallarda belgilangan **muddatlar va hajmlarda birja savdolariga qo'yilishi** holatlari yuzasidan Qo'mita tomonidan hududiy boshqarmalarga **har oyda** yuqoridagi qonun buzilish holatlariga yo'l qo'ygan subyektlar to'g'risidagi **ma'lumotlar taqdim etib boriladi**.

Xususan, Qo'mitaning 2025-yil 8-yanvarda 37/03-15-sonli xati orqali hududda faoliyat yuritayotgan **sement** ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 2024-2025-yillar oralig'ida ishlab chiqarilgan sement mahsulotining **50 foizidan** ortig'i to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali sotilish holatlari bo'yicha xat yuborilgan.

Ushbu aniqlangan qonun buzilish holatlar alomati hududiy boshqarmalarga **6 oy oldin berilgan bo'lsa-da**, topshiriq ijrosi **o'z muddatida ta'minlanmagan**.

Bugungi kun holatiga, **5 ta** korxonaga nisbatan ish qo'zg'atilgan va **2 ta** holatda tekshirish hamda o'rganishlar o'tkazilgan.

Shu bilan birga, sement ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotilganligi holati faqat **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Toshkent** viloyatlari hududiy boshqarmalari tomonidan o'rganilgan, **qolgan hududiy boshqarmalar** tomonidan tegishli ishlar **amalga oshirilmagan**.

Xususan, **Navoiy** viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha **ma'lumotlar taqdim etilmagan**.

Shuningdek, 2025-yil 14-apreldagi 850/03-15-sonli xati orqali hududiy boshqarmalarga **16 ta** mahsulot turi bo'yicha aprel oyida jadvallarga amal qilinmaganligi, **320 dan ortiq** korxona tomonidan jadvallar veb saytga joylashtirilmaganligi alomatlarini bo'yicha xat yuborilgan.

Bugungi kun holatiga, **15 ta** korxonaga nisbatan ish qo'zg'atilgan, **20 ta** holatda tekshirish va o'rganish o'tkazilmoqda, **70 ta** holat bo'yicha ko'rsatma va ogohlantirish berilgan.

Xususan, mazkur topshiriq ijrosi **Namangan, Farg'ona** va **Xorazm** viloyatlari hududiy boshqarmalari tomonidan bajarilgan bo'lib, qolgan hududiy boshqarmalar tomonidan **tegishli ishlar amalga oshirilmagan**.

Qo'mita tomonidan 2024-yil 31-oktyabrdan boshlab barcha suyultirilgan gaz importi bilan shug'ullanuvchi korxonalarga o'z ehtiyojlaridan (*ishlab chiqarish jarayonida ishlatish yoki tasarrufidagi shoxobchalari orqali sotish*) tashqari importdan keltirilgan suyultirilgan gaz hajmlarini ichki bozorda faqat birja savdolari orqali sotish bo'yicha **ko'rsatma berilgan**.

Mazkur ko'rsatma ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan qo'mita tomonidan 2025 -yil 23-yanvarda 163/03-15-sonli xat orqali hududiy boshqarmalarga:

- hududda faoliyat yuritayotgan suyultirilgan gazni saqlovchi korxonalarning **ustun muzokara kuchini e'tirof etish**;

- suyultirilgan gazni import qilgan **35 ta** korxonalar tomonidan reja-jadvallar o'z vaqtida birjaning **rasmiy veb saytiga joylashtirilishi**, tasdiqlangan grafiklar asosida bir maromda mahsulotlarni qo'yib borilishi, mahsulot belgilangan muddatlarda yuklab berilishi (yetkazib berilishi) holati ustidan kunlik monitoring o'rnatish bo'yicha **xat yuborilgan**.

Andijon, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va **Farg'ona** viloyatlari hamda **Toshkent** shahri hududiy boshqarmalari tomonidan o'rganishlar o'tkazilgan bo'lib, qolgan hududiy boshqarmalar tomonidan tegishli **ishlar amalga oshirilmagan**.

Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar bo'yicha qo'mita va uning hududiy boshqarmalari tomonidan **10 turdagi** ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarning (*bug'doy va un, qolipli non, mol go'shti, parranda go'shti, tuxum, paxta yog'i, kungaboqar yog'i, guruch, shakar, sut qadoqlangan*) narxlari o'zgarishi dinamikasi monitoring qilib boriladi.

Respublika bo'yicha iste'mol bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari barqarorligini ta'minlash maqsadida respublikaning barcha tuman va shahar dehqon bozorlari hamda arzonlashtirilgan oziq-ovqat savdo yarmarkalariga mas'ul xodimlar birlashtirilgan.

Qo'mita markaziy apparati hamda hududiy boshqarmalari tomonidan ichki bozorda mahsulotlarni ishlab chiqarishdan boshlab, yakuniy iste'molchiga sotish jarayonigacha

bo'lgan zanjirni o'rganish maqsadida **go'sht, parranda go'shti, sut, guruch, shakar va shu kabi boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari** ishlab chiqaruvchilari, ulgurji yetkazib beruvchilari, savdo tarmoqlari va yirik dehqon bozorlaridagi tadbirkorlar va aholi bilan uchrashuvlar o'tkazib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritib borilmoqda.

Biroq, hududiy boshqarmalar tomonidan, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini tahlil qilish sohasida **bir qator kamchiliklar mavjud**. Jumladan:

Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hududiy boshqarmalari tomonidan shakar, guruch, mol go'shti, parranda go'shti, paxta yog'i, tuxum, qolipli non mahsulotlari bo'yicha **o'rganish o'tkazilmagan**, qolgan barcha hududiy boshqarmalari tomonidan olib borilgan tahlillarda yetarli darajada **o'rganishlar o'tkazilmasdan**, statistik ma'lumotlardan foydalangan holda **taqdim etilgan**.

Shuningdek, hududiy boshqarmalar tomonidan ma'lumotlarni **"Fair Tech"** platformasining **"my.fairprice.uz"** tizimida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini haftaning juma kuni kiritilib borishi belgilangan.

Biroq, **Namangan, Surxondaryo va Samarqand** viloyati hududiy boshqarmalar tomonidan **muntazam ravishda sustkashlikka yo'l qo'yilib kelinmoqda**.

Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish bo'yicha qo'mitaning 2024-yil yakunlariga bag'ishlab o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning affillangan shaxslarini tashkil etishda monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi olinganligi yuzasidan hududiy boshqarmalarga doimiy ravishda xatlov o'tkazish va qonun buzilish holatlariga nisbatan tegishli chora ko'rish topshirig'i berilgan.

Hududiy boshqarmalar tomonidan ishlar mustaqil ravishda amalga oshirilmasdan markaziy apparatdan yuborilgan topshiriqlar bo'yicha cheklanib qolmoqdalar.

O'tgan davr mobaynida, **9 ta** hududiy boshqarmalar tomonidan **30 ta** qonun buzilish holatlari aniqlangan va ularga nisbatan ish qo'zg'atilib, choralar ko'rilgan bo'lsa-da, **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan va Samarqand** viloyatlari hududiy boshqarmalari tomonidan **qonun buzilish holatlari umuman aniqlanmagan**.

Tovar va moliya bozorlarida o'tkazilgan tahlillar bo'yicha joriy yil 17-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi o'tkazilgan videoselektor majlisining 33-son bayoni 57-bandida **Raqobat qo'mitasiga har chorakda:**

mahsulotlar turi bo'yicha ichki bozorning to'yinganligi, mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj hajmi va sotilish narxlarini hudud va tarmoqlar kesimida o'rganib borish;

Bozorda yetishmayotgan mahsulotlar bo'yicha yangi quvvatlarni yaratish va mavjudlarini kengaytirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritib borish belgilangan.

Lekin, hududiy boshqarmalar tomonidan mazkur topshiriq ijrosi o'z vaqtida bajarilmasdan, sifatsiz va to'liq tahlil qilinmagan ma'lumotlar taqdim etilmoqda. Davlat rahbarining hududlarga tashrifi davomida to'yinganlik darajasini aniqlash doim markaziy apparat tomonidan amalga oshirilmoqda.

Raqobat qo'mitasining asosiy funksiyalaridan biri Iqtisodiyotda (o'z hududida) raqobat muhiti holati bo'yicha **doimiy tahlillar o'tkazish hisoblanadi**.

Markaziy apparat tomonidan bir oyda kamida bitta soha bo'yicha tahlillar o'tkazilib, asoslangan takliflar bilan Hukumatga ma'lumot kiritib borilmoqda.

Biroq, hududiy boshqarmalar tomonidan o'tgan davrda Iqtisodiyotda (o'z hududida) raqobat muhiti holati bo'yicha mustaqil tarzda **tahlillar o'tkazilmagan va qo'mitaga taqdim etilmagan.**

Hududiy boshqarmalar tomonidan ustun mavqeni va ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish, tartibga solinadigan narxlarni qo'llanilishini buzish yo'nalishida joriy yilning o'tgan davrida jami **49 ta** ishlar ko'rib chiqilgan.

Ayrim hududlarda ushbu yo'nalishda ko'rsatkichlar juda past. Xususan,

Xorazm viloyatida **1 ta**, **Qashqadaryo** va **Namangan** viloyatlarida **2 tadan** hamda qolgan viloyatlarda o'rtacha **4 tadan** ishlar qo'zg'atilib, ko'rib chiqilgan.

Biroq, hududlardagi mavjud potentsialdan kelib chiqqanda **6 oy** davomida ustun mavqeni va ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish yo'nalishida atigi **4 ta** ishlar ko'rib chiqilishi (bir oyda bitta ham emas) **past ko'rsatkich hisoblanadi.**

Oldingi yillarda aniqlangan qonun buzilish holatlari bo'yicha ortiqcha olingan daromadlarni belgilangan tartibda tegishli hisob raqamlarga undirish yoki iste'molchilarga qayta hisob-kitob qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilishiga qaramasdan, bugungi kunga qadar 2000-2019 yillarda davomida **undirilmagan** jami **4,7 mlrd so'mlik** qoldiq mavjud. Jumladan:

Hududiy boshqarma rahbarlari bir necha bor ogohlantirishlarga qaramasdan ushbu qoldiq mablag'larni Majburiy ijro byurosi orqali undirish choralari ko'rmasdan, **o'z holiga tashlab qo'rganlar.**

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha Maxsus komissiyasining 1-sonli yig'ilish bayoni qarorining 17-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, hududiy boshqarmalarga narxlarning sun'iy ravishda pasaytirilishi yoki oshirib ko'rsatilishi holatlari bo'yicha har oyda **2 ta** subyektni aniqlab, qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rilishi vazifasi yuklatilgan.

Joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida **168 ta** holatni aniqlash rejasi belgilangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich atigi **49 foizga** bajarilgan, xolos.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama sohasini tartibga solishda iste'molchilarning nomuayyan doirasi huquqlarini himoya qilish maqsadida **10 ga yaqin** yo'nalishda **221 ta** tizimli o'rganishlar o'tkazilib, **jami 74,8 mlrd so'm** ortiqcha mablag' olingani aniqlangan va **43,5 mlrd so'm** qayta hisob-kitob qilinishi natijasida **16,6 mln nafar** iste'molchilarning buzilgan huquqlari tiklangan.

Biroq, **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Xorazm viloyatlari** tomonidan sustkashlikka yo'l qo'yilganligi sababli, **umumiy natijaning 1 foizni ham** tashkil etmagan.

Shuningdek, quyidagi sohalar bo'yicha alohida o'rganishlarda:

a) Umumiy ovqatlanish shoxobchalarida iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni xavfsizlik talablariga muvofiqligi, xizmatdan foydalanish natijasida iste'molchining sog'ligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holatlar tanlanma asosda **380 ta** korxonada o'rganildi.

Biroq, qo'mitaning 2025-yil 29-yanvardagi 489/26-26-sonli axborot taqdim etish haqidagi topshirig'i berilganligiga qaramasdan, **Buxoro, Navoiy va Xorazm** viloyatlari hamda **Toshkent shahar** hududiy boshqarmalari tomonidan o'rganishlar amalga oshirilmagan.

b) Iste'molchilarga maishiy chiqindilarni tashish xizmatlari ko'rsatish o'rganilganda **41,4 mlrd** so'm noreal qarzdorlik hisoblanganligi aniqlanib, qayta hisob-kitob qilish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Biroq, **Qoraqalpog'iston Respublikasi** Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan belgilangan muddatda **bajarilmagan**.

v) Aholiga kuz-qish mavsumida suyultirilgan gazni belgilangan hajmda yetkazib berilganligi o'rganilganda **jami 765,5 mln so'mlik** yetkazib berilmagan hajm uchun iste'molchilardan pul mablag'lari olinganligi aniqlangan.

Biroq, **Navoiy va Surxondaryo** viloyatlaridan tashqari boshqa hududlarda topshiriqqa sustkashlik bilan yondashib, bunday muammolar **aniqlanmaganligi bildirilgan**.

g) Elektron (onlayn) tijorat platformalarining **30 dan** ortiq ommaviy ofertalari o'rganildi va **16 foizida (5 ta)** amaldagi qonunchilik talablariga nomuvofiqliklar aniqlanib, tegishli choralari ko'rildi.

Biroq, **Surxondaryo va Toshkent** viloyatlari hududiy boshqarmalari tomonidan hech qanday ommaviy ofertalari o'rganilmagan.

Raqobat qo'mitasi tomonidan "**Fair tech**" yagona axborot tizimi orqali kelib tushgan xabarlar bo'yicha 2025 yilning o'tgan davri davomida olib borilgan o'rganishlarda **347 ta** dorixonada **181 192 ta** holatda dori vositalarning savdosi bo'yicha **2,9 mlrd so'm** asossiz daromad olinganligi aniqlanib, belgilangan tartibda qaytarish choralari ko'rilgan bo'lsa-da, **Qoraqalpog'iston Respublikasi (6 ta), Farg'ona (10 ta) va Xorazm (12 ta)** viloyatlari hududiy boshqarmalari tomonidan topshiriq ijosini tashkil etishda **sustkashlikka yo'l qo'yilgan**.

Reklama qonunchiligini buzilishi bo'yicha respublika miqyosida jami **17 mingdan** ortiq o'rganish o'tkazilgan bo'lsa-da, o'tkazilgan o'rganishlarda huquqbuzarlik holatini aniqlash bo'yicha eng achinarli holat **Navoiy (204 ta), Toshkent (220) va Xorazm (785 ta)** viloyatlariga **to'g'ri keladi**.

Shu bilan birga, reklama sohasida quyidagi yo'nalishlarda:

a) Qurilish sohasida iste'molchilarning noroziliklarini oldini olish maqsadida yangi qurilayotgan ko'p kvartirali uylarni belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligi bo'yicha **120 dan** ortiq o'rganishlar o'tkazilgan bo'lsa-da, **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy, Namangan, Samarqand, Xorazm va Toshkent** viloyatlari hamda **Toshkent** shahar hududiy boshqarmalari tomonidan **monitoringlar o'tkazilmagan**.

b) Mahsulotlarni sotishda reklama orqali o'tkaziladigan turli xil rag'batlantiruvchi aksiyalar bo'yicha **898 ta** o'rganishlar o'tkazilgan bo'lib, **28 ta** holatda kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etish choralari ko'rilgan.

Biroq, **Surxondaryo** hududiy boshqarmasi tomonidan umuman **monitoringlar o'tkazilmagan**.

v) Bukmekerlik va totalizatorlar xizmatlariga doir har qanday ko'rinishdagi (shakldagi, vositalardagi) reklamani targ'ib qilish holatlarini o'rganish yuzasidan **357 ta** monitoringlar o'tkazilgan va **33 ta** holatda kamchiliklar aniqlangan.

Biroq, **Surxondaryo** viloyati va **Toshkent** shahar hududiy boshqarmalari tomonidan umuman **monitoringlar o'tkazilmagan**.

g) “Reklama to‘g‘risidagi” qonun buzilishi sohasida **Farg‘ona** viloyatida **1 ta** va **Samarqand** viloyatida **5 ta** ish qo‘zg‘atilgan.

Yuridik ta‘minlash yo‘nalishi bo‘yicha qo‘mita faoliyatini samarali tashkil qilish bilan bog‘liq eng katta muammolardan biri bu qonunni qo‘llash amaliyoti bir xilda emasligi. Buni avval ham ta‘kidlab o‘tilganligiga qaramasdan, bugungi kunda ham ushbu kamchiliklar **bartaraf etilmasdan kelinmoqda**.

Hisobot davrida da‘vogar va javobgar sifatida ko‘rib, tamomlangan sud ishlari bo‘yicha **Xorazm** viloyatida **10 ta** sud ishining **3 tasi** (30%), **Sirdaryo** viloyatida **15 ta** sud ishining **3 tasi** (20%) hududiy boshqarma foydasiga **hal bo‘lmagan**.

Apellyatsiya kengashi tomonidan **Toshkent** viloyati **4 tadan 3 tasi**, **Samarqand** viloyati **2 tadan 2 tasi**, **Jizzax** viloyati **1 tadan 1 tasi**, **Xorazm** viloyati **1 tadan 1 tasi** va **Toshkent** shahar **4 tadan 1 ta** qarorlari **bekor qilingan**.

Toshkent viloyati hududiy boshqarmasining **4 tadan 1 ta** qarori **o‘zgartirilgan**.

Qo‘mitaning **14 ta** hududiy boshqarmalarida shtatlar jadvali bo‘yicha jami boshqaruv shtatlar soni **234 tani** (**5 ta vakant**) tashkil qiladi. Shundan, asosiy faoliyat bilan bog‘liq (*rahbariyat, raqobat va iste‘molchi bo‘limlari*) shtatlar soni **187 tani** tashkil qilib, ulardan **4 tasi** vakant.

Asosiy faoliyat bo‘yicha ishlayotgan **183 ta** xodimlarning qo‘mita tizimidagi ish staji tahlil qilinganda, **14 ta** (**8 %**) xodim **1 yilgacha**, **20 ta** (**11 %**) xodim **1-2 yil**, **13 ta** (**7 %**) xodim **2-3 yil**, **20 ta** (**11 %**) xodim **3-5 yil**, **54 ta** (**29 %**) xodim **5-10 yil** va **62 ta** (**34 %**) xodim **10 yildan** ortiq ish stajiga ega.

Xodimlarning **34 nafari** yoki **19 %** qo‘mita tizimida 2 yil ish stajiga ega emas.

Masalan, **Samarqand** viloyatida xodimlarning **12 nafaridan 7 nafari** (**58 %**), **Toshkent** viloyatida **13 nafaridan 6 nafari** (**46 %**), va **Qoraqalpog‘iston Respublikasida 13 nafaridan 5 nafari** (**38 %**) qo‘mita tizimida yangidan ish boshlagan xodimlarni tashkil qiladi.

Kadrlar qo‘nimsizligi bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, hududiy boshqarmalarda **2025-yil III choragida 26 nafar** xodim ishdan bo‘shatilgan va qo‘nimsizlik darajasi **8 foizni** tashkil qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentyabrdagi 492-sonli qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-noyabrdan boshlab davlat boshqarmalarida inson resurslarini boshqarishga oid barcha ma‘lumotlar va hujjatlar “Hrm.argos.uz” elektron platformasida yuritilishi belgilangan bo‘lsa-da, ayrim hududiy boshqarmalar tomonidan qabul qilinayotgan kadrlarga oid hujjatlarni tizimga kiritmaslik holatlari hozirgacha mavjud.

Hududiy boshqarmalar tomonidan, hisobot davomida qabul qilingan jami **1 893 ta** buyruqning **263 tasi** tizimga kiritilmagan.

Masalan, **Surxondaryo** viloyatida qabul qilingan **64 ta** buyruqdan atigi **10 tasi** tizimga kiritilgan, qolgan **54 tasi** (**84 %**) platforma orqali shakllantirilmagan, **Qoraqalpog‘iston Respublikasida 277 tadan 125 tasi** (**45 %**) va **Toshkent** viloyatida **114 tadan 50 tasi** (**44 %**) bo‘yruq nusxalari platformaga kiritilmagan.

Qo‘mitaning 2023-yil 12-iyundagi 116-ShT-sonli buyrug‘i bilan tizimdagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish faqat tanlov asosida amalga oshirilishi belgilangan bo‘lishiga qaramasdan, **Namangan** viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan 2025-yil 11-iyundagi 38-ShT-sonli buyrug‘i bilan hech qanday **tanlov o‘tkazilmasdan**, fuqaro

Mirzabayev Xusniddin Muxamadjonovich Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis lavozimiga **ishga qabul qilingan**.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etilgan xato-kamchiliklar va quloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvni barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. Qo'mita tomonidan 2025-yil III choragi davomida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va hududiy organlar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida qo'mita raisi o'rinbosari F.Karabayevning hisoboti **ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin**.

2. Qo'mita markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, qo'mita tasarrufidagi tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda hududiy boshqarmalar rahbarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2025-yil III choragida belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar **qoniqarsiz deb topilsin**.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlarida bayon etilgan ko'rsatma va topshiriqlarning ijrosini kechiktirib bajarish, shuningdek, belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlanmaslik holatlaridan tegishli xulosa chiqarishi, shaxsiy mas'uliyat va javobgarlikni, har bir ijro intizomiga qat'iy va so'zsiz rioya etmaslik holatlari uchun **intizomiy jazo muqarrarligini his etgan holda faoliyatini tashkil etishi uqtirib o'tilsin**.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan qo'mitaga yuklatilgan vazifalar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashganligi uchun **Qoraqalpog'iston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi D. Davletov, Andijon viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i A.Matmusayev, Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i V. Qahhorov, Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i I.Mamatqulov, Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i S. Sadikov, Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i, A.Mukxammadiyev, Namangan viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i F. Soloxitdinov, Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i B.Toyirov, Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i Q.Yuldashev, Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i F.Samatov, Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i A.Xolmatov, Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i A.Sabirov, Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i J.Ismoilov va Toshkent shahar hududiy boshqarmasi boshlig'i J. Turobovlar qat'iy ogohlantirilsin.**

4. **Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi** (O.Jumayev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda hududiy boshqarmalar tomonidan tegishli hududlarda inflyatsiyaga asosiy "bosim"ni shakllantirayotgan oziq-ovqat mahsulotlari

narxlarini barqarorlashtirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va takliflar, shuningdek, tovar bozorlarning mahalliy mahsulotlar bilan to'yinganlik darajasi bo'yicha tahlillarning qo'mita (Markaz)ga muntazam ravishda taqdim etib borilishi yuzasidan monitoring olib borsin hamda **monitoring natijalari to'g'risida har chorak yakuni bilan rahbariyatga axborot kiritin.**

5. Qonun hujjatlari va davlat organlari hujjatlarini raqobat muhitiga ta'sirini hamda davlat ko'magini samaradorligini baholash boshqarmasi (S.Atamurotov), **hududiy boshqarma rahbarlari** bilan birgalikda joriy yil **15-avgustga qadar** davlat hokimiyati organlari va respublika ijro etuvchi organlarning hududiy bo'linmalari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va harakatlarida kamchiliklar aniqlanmagan hududlarda raqobat qonunchiligiga mosligi yuzasidan o'rganish o'tkazish grafigini ishlab chiqsin va tasdiqlashga kiritin;

O'rganish natijalariga ko'ra, kamchilikka yo'l qo'ygan hududiy boshqarma boshlig'iga nisbatan **intizomiy jazo qo'llash** yuzasidan takliflar kiritib borsin.

6. Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish boshqarmasi (B.Boboxonov) va **Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi** (A.Xakimov) bilan birgalikda **1 oy muddatda** "Samarqand Avtomobil Zavodi" MChJ tomonidan 4272993-sonli lot raqami bilan "Kuzov yetkazib berish va o'rnatish" yuzasidan o'tkazilgan tanlov bo'yicha tekshirish o'tkazsin hamda hududlarda davlat xaridlarini o'rganuvchi xodimlar va ularning rahbarlarini qattiq nazoratga olsin va rahbariyatga doimiy **ma'lumot kiritib borsin.**

7. Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish boshqarmasi (B.Boboxonov) **hududiy boshqarma rahbarlari** bilan birgalikda **bir oy muddatda** Namangan viloyati "Opella Healthcare Italy S.R.L." kompaniyasi, Samarqand viloyati "AgroBravo" MChJ va Toshkent shahar "ISE&GOLD" MChJlar murojaatlarini qayta ko'rib chiqsinlar va qonunchilikda **belgilangan tartibda chora ko'rsinlar.**

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi (A.Xakimov) murojaatlarni o'rganib chiqish natijalariga ko'ra, ushbu hududiy organlarga nisbatan tekshiruv o'tkazsin va natijasi yuzasidan rahbarga taklif kiritin.

8. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (U.Qalandarov), **Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi** (A.Xakimov) **bir oy muddatda** Namangan viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i o'rinbosarlarini lavozimlarini almashtirish (rotatsiya qilish) yuzasidan taklif ishlab chiqib, rahbariyatga kiritin.

Hududiy boshqarma boshliqlari har bir hududda **yil yakuniga qadar** kamida **3 ta** holat bo'yicha kartel kelishuvi bo'yicha o'rganish o'tkazib, qo'mitaga ma'lumot taqdim etsinlar.

9. Hududiy boshqarma boshliqlari bir hafta muddatda yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlarning birja savdolarida sotilishi bo'yicha berilgan barcha topshiriq ijrosini amalga oshirilishi ta'minlasinlar va qo'mitaga ma'lumot **taqdim etsinlar.**

Tovar-xom ashyo birjalari va iste'mol bozorlarida narxlarni nazorat qilish boshqarmasi (D.Xamrayev) topshiriq ijrosini amalga oshirilishini nazorat qilsin hamda

ma'lumot **taqdim etmagan hududiy** boshqarma boshlig'iga nisbatan chora ko'rish bo'yicha **taklif kiritin**.

10. **Hududiy boshqarma boshliqlari har oy** ishlab chiqaruvchilar, ulgurji yetkazib beruvchilar, savdo tarmoqlari va yirik dehqon bozorlaridagi tadbirkorlar va aholi bilan uchrashuvlar o'tkazib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha asosli **takliflarni qo'mitaga taqdim etib borsinlar**.

Tovar-xom ashyo birjalari va iste'mol bozorlarida narxlarni nazorat qilish boshqarmasi (**D.Xamrayev**) ushbu takliflarni o'rgangan holda statistik ma'lumotlarga asoslangan ma'lumotlar kiritmagan hududiy organ rahbariga nisbatan ta'sirchan chora ko'rish bo'yicha taklif kiritib borsin.

11. **Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish boshqarmasi** (**D.Nasirova**) **har chorakda** barcha tashkil etilgan davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning afillangan korxonalari ro'yxatini shakllantirib, hududlarga yuborilishini ta'minlasin;

Hududiy boshqarma boshliqlari **bir oy** muddatda qo'mitadan berilgan ro'yxat bo'yicha o'rganib, affillangan shaxslarini tashkil etishda monopoliyaga qarshi organining oldindan roziligi olinmagan davlat korxonalari bo'yicha tegishli chora ko'rish;

har chorakda kamida uchta bozor bo'yicha har bir hududda iqtisodiy salohiyatidan (xom ashyo bazasi, hududdagi talab hajmidan) kelib chiqib muayyan tovarlarning to'yinganligini tahlil qilib, ma'lumotlar kiritib borish;

- **har oy** kamida bitta soha bo'yicha Iqtisodiyotda (o'z hududida) raqobat muhiti holati bo'yicha tahlillar o'tkazilib, asoslantiruvchi takliflarni qo'mitaga kiritib borsinlar.

12. **Hududiy boshqarma boshliqlari Monopoliyaga qarshi tartibga solish, narxlar va ta'riflarni tartibga solish boshqarmasi** (**U.Davlatov**) bilan birgalikda narxlarning sun'iy ravishda pasaytirilishi yoki oshirib ko'rsatilishi holatlari bo'yicha **har oyda** kamida **2 ta** ishlar ko'rib chiqish;

2000-2019 yillar davomida undirilmagan jami **4,7 mlrd so'mlik** qoldiq mablag'larni **qisqa muddatda** undirish chorasini ko'rsinlar.

13. **Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi** (**E.Haitmetov**) **joriy yil 11-avgustga** qadar hududlar kesimida nomuayyan doirada iste'molchilar muammolarini o'rganish qaysi sohalar bo'yicha amalga oshirilishi yuzasidan reja-grafigini ishlab chiqib, hududlarga topshiriq tushirishni ta'minlasin. Xuddi oldingi topshiriqdagilar kabi bunda ham o'rganish jarayonida nimalarga e'tibor berish zarurligi bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqib, yetkazilishi **ta'minlansin**.

Hududiy boshqarma boshliqlari tasdiqlangan reja grafikka muvofiq o'rganishlar o'tkazib, har oyda qo'mitaga (**E.Hayitmetovga**) ma'lumot kiritish;

Ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, bosma nashrlar, tashqi reklama vositalarida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messenjerida tashkil qilingan guruh va kanallarda) joylashtirilayotgan reklama axborotlarining reklama to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga mosligi yuzasidan **doimiy monitoring** (ko'rik, tahlil) **o'tkazib borilishini ta'minlasin**.

14. **"Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi"** Davlat muassasasi (**R.Kichkilov**) tashqi reklama obyektlarini (konstruksiylarini) qurish huquqini auksion platformasi orqali savdosini tashkil etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

15. **Yuridik ta'minlash bo'limi** (Sh.Shadmankulov), **Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi** (A.Xakimov), **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi** (U.Qalandarov) bilan birgalikda avgust oyidan boshlab grafik asosida **har oyda** kamida ikkita hududiy boshqarmalarga chiqib, ular tomonidan qabul qilingan qarorlarni inventarizatsiyadan o'tkazsin;

Boshqarmalar tomonidan qabul qilingan qaror va ko'rsatmalarda huquqni qo'llashda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni to'g'rilash bo'yicha choralar ko'rilsin. Xatoga yo'l qo'ygan hududiy boshqarma boshliqlari va mas'ul xodimlarga nisbatan **intizomiy jazo** qo'llash bo'yicha rahbariyatga **takliflar kiritsin**.

Shuningdek, hududiy boshqarma xodimlarining bilimini oshirish maqsadida, **ikki hafta** muddatda huquqni qo'llash amaliyotini birxillashtirish bo'yicha yo'riqnoma, qaror va ko'rsatmalar namunalarini ishlab chiqsin.

16. **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi** (U.Qalandarov), **Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi** (O.Jumayev) bilan birgalikda joriy yil **1-sentyabrga qadar** hududiy organlardagi mutaxassislarni malakasini oshirish uchun o'quv kurslari tashkil qilish reja grafisini ishlab chiqib tasdiqlash uchun kiritsin;

Hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda mavjud vakansiyalarni to'ldirish va kadrlar qo'nimsizligini qisqartirish bo'yicha tegishli choralar ko'rsin;

Hududiy boshqarma boshliqlari 10-oktabrga qadar inson resurslarini boshqarishga oid barcha ma'lumotlar va hujjatlarni "Hrm.args.uz" elektron platformasiga kiritilishi ta'minlasinlar.

17. **Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi** (O.Usmonov):

Hududiy organ rahbarlari jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishidagi ishlarni qat'iy nazoratini ta'minlasin, sifatli ma'lumotlar yetkazib berilishi va muntazam ravishda uni tanqidiy ko'rib borib **o'rinbosarlarining ham o'z yo'nalishlarida mas'ul ekanligi belgilansin**.

18. **Strategik rejalashtirish, transformatsiya va metodologiya bo'limi** (N.Sabirov) **ikki hafta muddatda** tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda **qo'mitaning 2025-yil II yarim yillik uchun mo'ljallangan** ish rejasini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin.

19. **Axborot tahlil va ijro intizomi boshqarmasining Murojaatlar bilan ishlash, ijro intizomi va natijadorlikni baholash bo'limi** (A.Mirzayev) qo'mita tomonidan hududlarga berilgan topshiriqlar va mazkur bayon ijrosi to'g'risida **har oy yakuni bilan** umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlarni qo'mita raisiga kiritib borsin.

20. **Devonxona** (F. Ikramova) mazkur bayonnomani qo'mita markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlariga yuborilishini ta'minlasin.

21. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Hay'at raisi



H.S.Turaxujayev